O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil 27-iyundagi 196-sonli buyrug‘iga
12-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hamda tizim tashkilotlari tomonidan kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga kiritish uchun korrupsiyaga qarshi qoidalarning (korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari) mazmuni bo‘yicha**

**ASOSIY SHARTLAR**

1. Taraflar shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va’da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to‘lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya’ni Vazirlik xodimi o‘z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo‘yicha bir Taraf Vazirlik xodimining axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo‘lgan faktlar duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

ishonch telefoni;

Telegram-kanali (Maxsus bot: );

Vazirlikning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.